



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 490 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmirzo</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbosovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diyagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
<i>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</i>	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhomet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi.....	317
<i>Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar	322
<i>Fayziyeva Umida Asadovna</i>	
Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumlalarning nahviy tahlili	328
<i>Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi</i>	
"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili	333
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi</i>	
Jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va uning vatanparvarlik harakatlari...	337
<i>Raximov Azizbek Normurodovich</i>	
Biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi	342
<i>Ibodova Mahfuza Namozovna</i>	
Ta'limni tashkil etishning pedagogik omillari	346
<i>Yuldasheva Nilufar Abdullayevna, Hazratkulova Lobar To'rabek qizi</i>	
5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika orqali maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish	350
<i>Botirova Sayyora Nurullayevna</i>	
Talabalarda grammatik kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari	354
<i>Aymanova Shyirinay Kamilovna</i>	
Yosh ofitserlarda xizmat rezistentligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar	357
<i>Rejаметова Irada Ikramshikovna</i>	
Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari	363
<i>Yusufzoda Shabnami Yunus</i>	
Преимущества использования STEAM технологий в дошкольном образовании.....	368
<i>Садикова Д. Х.</i>	
Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratining pedagogik-psixologik determinantlari	371
<i>Saliyeva Muslima Maxsetbay qizi</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarining etik va huquqiy jihatlari o'qitish metodikasi	377
<i>Turanova Aynur Baxtjan qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar alaliyasini korreksiya qilishda neyrostimulyatsiya hamda logopedik texnologiyalarning kompleks qo'llanilishi.....	381
<i>Axunxodjayeva Dildoraxon G'anixon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligi korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida	384
<i>Qilichova Marxabo Xudaykulovna</i>	
Informatika fanini innovatsion vositalar bilan o'qitish.....	392
<i>Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi</i>	
Jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi....	397
<i>Mamatxanov Nodirxon Sadridin o'g'li</i>	
Sociolinguistic Variation in English: A Study of Dialects and Accents.....	402
<i>Keldiboyeva Diyora Shuhratilla qizi, Ramazonova Feruzaxon Akbarovna</i>	
Ingliz va o'zbek multimodal diskursida lingvomadaniy ma'noning verbal-vizual vositalar orqali voqelanishi: chog'ishtirma-pragmatik tahlil.....	405
<i>Mo'minova Maftuna Alijonovna</i>	
Long-Term Retention and Pragmatic Use of English Idioms Following Adaptive Instruction: A Longitudinal Follow-Up Study.....	409
<i>Alisher Sidikov Uktamjonovich</i>	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik modeli	418
<i>Yangiyev Shavkat Norkobulovich</i>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	422
<i>Sh. Yu. Abdunabiyeva</i>	

Dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	428
Turamuratov Ulug'bek Uraqovich	
Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli	433
Raisov Shamsiddin Rashid o'g'li	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	438
Radjapov Aybek Allaberganovich	
Miya falajiga chalingan bolalar bilan qilichbozlik mashg'ulotlarini o'tkazish uchun moslashuvchan dasturni ishlab chiqish va raqamli uslubiy yordam	442
Davranova Maftunabonu Elyorovna	
Maxsus pedagogika yo'nalishi talabalari kasbiy mas'uliyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari...	448
Xalimova Ozoda	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini raqamli didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish	451
Sabohat Sharofiddinovna Siddiqova	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi	455
Baratova Yulduz	
Talabalar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda sun'iy intellektning o'rni	461
Shamsudinova Malika Ulug'bek qizi	
Deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik muammolari va ularning yechimlari.....	464
Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich	
Muloqot va uni o'smirlik yoshida rivojlantirish masalalari	470
Orifova Sabot Yakubovna	
O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish metodlari.....	474
Safarova Dilnoza Kuchkarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining barkamol yosh avlodni shakllantirishida milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni	478
Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi ahamiyatining rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlili.....	481
Oripova A'lo O'ktam qizi	
Logopediya fanida me'yor tushunchasining zamonaviy talqinlari: nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar.....	485
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	

DUAL TA'LIM MODELI SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MULOQOT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Turamuratov Ulug'bek Uraqovich

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan. Pedagogik muloqot ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida o'qituvchi kasbiy kompetentligining ajralmas elementi ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirishdagi o'rni, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati hamda dual ta'lim tizimida ta'lim muassasasi va amaliyot bazalari o'rtasidagi hamkorlik jarayonida namoyon bo'ladigan kommunikativ faoliyat xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik mahorat, ta'lim sifati, integrativ yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, refleksiya, kommunikativ madaniyat, pedagogik hamkorlik.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing the pedagogical communication competence of future teachers within the dual education model. It scientifically substantiates that pedagogical communication, as an essential component of the educational process, constitutes an integral element of teachers' professional competence. The article also highlights the role of communicative competence in the formation of teachers' professional mastery, its significance in ensuring the effectiveness of pedagogical activity, and the specific characteristics of communicative interaction manifested in cooperation between educational institutions and practical training bases within the dual education system.

Key words: dual education, pedagogical communication, communicative competence, professional competence, future teacher, pedagogical mastery, quality of education, integrative approach, professional training, reflection, communicative culture, pedagogical cooperation.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и методологические основы развития компетентности педагогического общения будущих учителей в условиях модели дуального образования. Научно обосновано, что педагогическое общение, являясь важной составной частью образовательного процесса, выступает неотъемлемым элементом профессиональной компетентности учителя. Также раскрыты роль коммуникативной компетентности в формировании профессионального мастерства педагога, её значение в обеспечении эффективности педагогической деятельности, а также особенности коммуникативной деятельности, проявляющиеся в процессе взаимодействия образовательного учреждения и баз практической подготовки в системе дуального образования.

Ключевые слова: дуальное образование, педагогическое общение, коммуникативная компетентность, профессиональная компетентность, будущий учитель, педагогическое мастерство, качество образования, интегративный подход, профессиональная подготовка, рефлексия, коммуникативная культура, педагогическое сотрудничество.

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida ta'limni modernizatsiya qilish, bo'lajak o'qituvchilarni amaliyotga yo'naltirilgan holda tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya, mehnat bozori talablarining o'zgarishi va ta'lim sifatiga qo'yilayotgan yangi talablar pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, dual ta'lim modeli oliy ta'lim muassasalari va amaliyot bazalari o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlaydigan samarali mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dual ta'lim modeli nazariy tayyorgarlikni



amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur model doirasida pedagog nafaqat fan mazmunini mukammal egallashi, balki ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samarali kommunikativ munosabatlarni tashkil eta olishi ham zarur hisoblanadi. Zero, zamonaviy pedagog faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning pedagogik muloqotni ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim oluvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, tarbiyaviy ta'sirni to'g'ri rejalashtirish va boshqarish ko'nikmalariga bog'liq.

Pedagogik muloqot o'qituvchining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda axborot almashinuvi, shaxslararo munosabatlarni boshqarish, motivatsiyani shakllantirish, refleksiv tahlilni tashkil etish va ta'lim jarayonini samarali boshqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, dual ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchi bir vaqtning o'zida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagoglari, mentorlar, o'quvchilar va ota-onalar bilan uzluksiz muloqot olib boradi. Bu esa kommunikativ kompetentlikni kasbiy tayyorgarlikning ustuvor komponentlaridan biriga aylantiradi.

Mamlakatimizda pedagogik ta'limni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, amaliyot ulushini kengaytirish, dual ta'lim elementlarini joriy etish hamda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Bunday sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'qituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg'in muloqot qila olishi hamda ularga jonkuyar va mehribon rahbar bo'lishidir. Pedagogik-psixologik yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida o'qituvchilarning sarmahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyatlar to'g'risida ko'plab fikr va mulohazalar yuritilgan.

O'qituvchi o'z kasbiga qiziqmasa, o'quvchilarga nisbatan mehr-muhabbati bo'lmasa, ular bilan qizg'in muloqot qila olish qobiliyati, ya'ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchining integrallashgan fanlar asoslarini hamda o'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero, u o'zining bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasidagina yetkazib bera oladi. O'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqoti ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti hamda asosiy mazmuni sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya, kommunikatsiya nazariyasi va kasbiy ta'limga oid ilmiy tadqiqotlarda turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda pedagogik muloqot o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida axborot almashish bilangina cheklanmaydigan, balki o'zaro tushunish, hamkorlik, tarbiyaviy ta'sir, hissiy qo'llab-quvvatlash va pedagogik faoliyatni muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan murakkab kasbiy jarayon sifatida tavsiflanadi. Shu sababli kommunikativ kompetentlik bo'lajak o'qituvchining umumiy kasbiy kompetentligidan ajralgan holda emas, uning tarkibiy va integrativ elementi sifatida qaralishi lozim.

Kommunikativ kompetentlik tushunchasining nazariy shakllanishida D. Hymesning ilmiy qarashlari muhim o'rin egallaydi. Olim kommunikativ kompetentlikni grammatik jihatdan to'g'ri jumla tuzish qobiliyatidan kengroq tushuncha sifatida talqin qilib, muloqot vositalaridan muayyan ijtimoiy vaziyatga mos ravishda foydalanish qobiliyatini uning asosiy belgisi sifatida ko'rsatgan ^[1].

M. Canale va M. Swain esa kommunikativ kompetentlik tarkibida grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarni ajratgan ^[2]. Mazkur nazariy qarashlar pedagogik faoliyatga tatbiq etilganda, bo'lajak o'qituvchi nafaqat nutq me'yorlarini bilishi, balki o'quvchilarning yoshi, ehtiyoji, individual-psixologik xususiyatlari va pedagogik vaziyat mazmuniga muvofiq kommunikativ strategiyani tanlay olishi zarurligini ko'rsatadi.

Sh. Primovning tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda pedagogik fanlar mazmunining imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif kommunikativ tayyorgarlikning insonparvarlik xususiyati, kasbiy muloqotga motivatsiya, suhbat va hamkorlikka tayyorlik kabi jihatlarga e'tibor qaratadi ^[4]. Mazkur qarash pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirish faqat nutqiy mashqlar bilan chegaralanmasligi, balki talabning qadriyatli munosabati, kasbiy motivatsiyasi va insonparvar kommunikativ pozitsiyasini shakllantirishni ham nazarda tutishini ko'rsatadi.

Kommunikativ vazifa pedagogik faoliyatda nisbatan ishlab chiqaruvchi xarakterga ega bo'lib, murakkab vazifani hal etadi. Zero, u pedagogik vazifadan kelib chiqqan, shu sababli o'qituvchi tomonidan tanlanadi va belgilanadi (1-rasm). Aytish mumkinki, kommunikativ vazifa aynan kommunikatsiya tiliga o'tkazilgan pedagogik vazifaning o'zi. Kommunikativ vazifa pedagogik vazifaning asosini aks ettirib, unga nisbatan yordamchi, instrumental xarakterga ega bo'lgan jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning maqsadi dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish hamda samarali pedagogik shart-sharoitlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotda kompetensiyaviy, tizimli-faoliyatli, integrativ, shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy-pedagogik hamda psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik kuzatish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalarni o'rganish asosida pedagogik muloqot, kommunikativ kompetentlik, kasbiy kompetentlik va dual ta'lim tushunchalarining mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Pedagogik muloqot kompetentligining tarkibiy tuzilishini aniqlashda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv-baholash komponentlari asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Ushbu komponentlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqotga bo'lgan kasbiy munosabati, nazariy bilimlari, real pedagogik vaziyatlarda kommunikativ faoliyatni tashkil etish ko'nikmalari hamda o'z faoliyatini tahlil va baholash qobiliyatlari o'rganildi.

Dual ta'limning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishda nazariy tayyorgarlik va amaliy faoliyatning o'zaro integratsiyasi, mentorlik faoliyati, real pedagogik vaziyatlarda kommunikativ tajriba orttirish, muntazam qayta aloqa hamda refleksiv tahlil jarayonlariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, mikrodars, rolli o'yinlar, pedagogik vaziyatlar tahlili, videokuzatuv va refleksiv kundalik kabi metodlarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida dual ta'lim modeli sharoitida nazariy va amaliy tayyorgarlikning uzviy integratsiyasi, malakali mentorlik, real kommunikativ vaziyatlarning muntazam tashkil etilishi, konstruktiv qayta aloqa va refleksiv tahlil bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini samarali rivojlantirishning muhim pedagogik shart-sharoitlari sifatida belgilandi.


Tadqiqot jarayonida dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi nazariy, metodik va tashkiliy omillar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagogik muloqot kompetentligini faqat auditoriya mashg'ulotlari doirasida shakllantirish yetarli emas. Mazkur kompetentlik real pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar, mentor-o'qituvchilar, pedagogik jamoa hamda ota-onalar bilan muntazam kommunikativ hamkorlik qilish jarayonida samaraliroq rivojlanadi. Shu jihatdan dual ta'lim modeli nazariy tayyorgarlik va amaliy faoliyatning uzviy integratsiyasini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijasida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirish jarayonini motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv-baholash komponentlari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo'lajak o'qituvchining pedagogik muloqotga ijobiy munosabati, o'quvchilar bilan insonparvar hamkorlik qilishga tayyorligi, kasbiy muloqot madaniyatiga ehtiyoji va kommunikativ faoliyatni o'z kasbiy rivojlanishining muhim sharti sifatida qabul qilishini ifodalaydi. Mazkur komponentning shakllanganligi talabning pedagogik vaziyatlarda faol ishtirok etishi, muloqotga tashabbuskorlik bilan kirishishi va suhbatdoshning shaxsiy xususiyatlariga hurmat bilan yondashishida namoyon bo'ladi.

Kognitiv komponent pedagogik muloqotning nazariy asoslari, kommunikativ jarayonning psixologik mexanizmlari, verbal va noverbal muloqot vositalari, pedagogik konfliktologiya, qayta aloqa, empatiya, tinglash texnikasi va kommunikativ strategiyalar haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, nazariy bilimlar real pedagogik vaziyatlar bilan bog'langandagina barqaror kasbiy ko'nikmaga aylanadi. Shu sababli dual ta'lim jarayonida universitetdagi nazariy mashg'ulotlar amaliyot bazasidagi kommunikativ vaziyatlar bilan bevosita uyg'unlashtirilishi lozim.

Kommunikativ-faoliyatli komponent pedagogik muloqot kompetentligining amaliy yadrosini tashkil etadi. U talabning o'quvchilar bilan pedagogik muloqotni tashkil etishi, savollar berishi, faol tinglashi, fikrini aniq va tushunarli ifodalashi, vaziyatga mos kommunikativ uslubni tanlashi, pedagogik nizolarni konstruktiv hal qilishi, jamoaviy hamkorlikni tashkil etishi hamda verbal va noverbal vositalardan samarali foydalanishini o'z ichiga oladi. Dual ta'lim sharoitida ushbu ko'nikmalar auditoriyadagi sun'iy mashqlar emas, balki real pedagogik faoliyat davomida shakllanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.



1-rasm: Pedagogik ta'sir etishning mantiqiy shakli

Pedagogik amaliyot natijalari shundan dalolat beradiki, o'qituvchi o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikning maqbul metodini tanlagan va pedagogik vaziyatni to'g'ri baholagan taqdirda ham, ayrim hollarda o'z pedagogik ta'sirini kommunikativ jihatdan samarali ta'minlay olmaydi. Boshqacha aytganda, u pedagogik kommunikatsiyani amaliy muloqot jarayonida to'liq va samarali amalga oshira olmaydi. Pedagogik ta'sirni ta'minlashda o'qituvchi tomonidan tanlanadigan metod va usullar bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur jarayonni yuksak pedagogik mahorat asosida, ongli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish hamda pedagogik faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatga oldindan tayyor turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun har bir o'qituvchi o'zining pedagogik tajribasi, kasbiy mahorati va reflektiv tahliliga tayangan holda o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning mantiqiy modelini ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ib, tizimlashtirib va tahlil qilib borishi, ularni amaliy faoliyatida qo'llashi hamda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini izchil rivojlantirib borishi zarur.

Tadqiqot natijalari dual ta'lim modeli bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur modelning ustun jihati shundaki, unda talabani nazariy bilimlari real pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'lanadi. Natijada pedagogik muloqotga oid tushuncha va qonuniyatlar faqat nazariy darajada o'zlashtirilmay, amaliy vaziyatlarda sinovdan o'tkazilib, kasbiy xulq-atvor shakliga aylanadi.

Pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishda an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari muhim bo'lsa-da, ular real kasbiy vaziyatlarning barcha murakkabliklarini to'liq modellashtira olmaydi. Dual ta'lim sharoitida esa bo'lajak o'qituvchi o'quvchilar, pedagoglar, maktab ma'muriyati va ota-onalar bilan turli kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etadi. Bu jarayon talabani kommunikativ moslashuvchanligi, pedagogik takti, empatiyasi, faol tinglash qobiliyati va vaziyatga mos muloqot strategiyasini tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, pedagogik muloqot kompetentligini shakllantirishni faqat verbal nutq ko'nikmalariga bog'lash yetarli emas. Zamonaviy o'qituvchining kommunikativ faoliyati verbal, nonverbal, ijtimoiy-psixologik, axloqiy va reflektiv komponentlarning o'zaro birligiga asoslanishi kerak. Shu sababli tadqiqotda pedagogik muloqot kompetentligini motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va reflektiv-baholash komponentlari asosida rivojlantirish taklif etildi.

Dual ta'lim sharoitida mentorlik tizimi alohida pedagogik ahamiyatga ega. Tajribali pedagog talaba uchun nafaqat metodik maslahat beruvchi, balki professional muloqot namunasini namoyon etuvchi subyekt sifatida ham xizmat qiladi. Talaba mentorning o'quvchilar bilan munosabati, savol berish usullari, konfliktlarni boshqarishi, rag'batlantirish va qayta aloqa shakllarini bevosita kuzatadi. Shu asosda u o'z kommunikativ faoliyatini shakllantiradi va individual pedagogik uslubini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, mentorlik faqat kuzatish bilan cheklanmasligi kerak. Talabani kommunikativ faoliyatini muntazam muhokama qilish, kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, aniq tavsiyalar berish va keyingi faoliyat uchun rivojlanish vazifalarini belgilash zarur. Bunday reflektiv hamkorlik pedagogik muloqot kompetentligining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim jihat shundaki, dual ta'limda nazariya va amaliyotning almashinib borishi talabani kasbiy bilimlarini qayta tashkil etish imkonini beradi. Masalan, universitetda o'rganilgan pedagogik konflikt, faol tinglash yoki qayta aloqa nazariyasi maktabdagi real vaziyatda amaliy mazmun kasb etadi. Talaba ushbu tajribani keyinchalik tahlil qilib, nazariy bilim bilan solishtiradi va yangi xulosalar chiqaradi. Bu jarayon tajribaviy va reflektiv o'rganish mexanizmlarini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlil va umumlashtirishlar dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

Pedagogik muloqot kompetentligi bo'lajak o'qituvchining faqat nutqiy yoki kommunikativ qobiliyatini emas, balki pedagogik vaziyatni anglash, suhbatdoshning individual xususiyatlarini hisobga olish, verbal va nonverbal vositalardan samarali foydalanish, faol tinglash, empatiya namoyon etish, konfliktlarni konstruktiv boshqarish, qayta aloqa tashkil qilish va o'z faoliyatini refleksiv baholash kabi kompleks kasbiy ko'nikmalarni qamrab oladi.

Dual ta'lim modeli bu jarayon uchun qulay pedagogik muhit yaratadi, chunki unda nazariy tayyorgarlik real kasbiy faoliyat bilan muntazam ravishda uyg'unlashadi. Talaba o'quvchilar, tajribali pedagoglar, ota-onalar va ta'lim muassasasining boshqa subyektlari bilan bevosita muloqot olib borish orqali o'z kommunikativ tajribasini boyitadi.

Shuningdek, mentorlik, mikrodars, pedagogik vaziyatlar tahlili, rolli o'yinlar, videokuzatuv, refleksiv kundalik va konstruktiv qayta aloqa kabi metodlar bo'lajak o'qituvchining pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida belgilandi.

Dual ta'lim sharoitida pedagogik muloqot kompetentligini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash zarur:

1. Nazariy va amaliy tayyorgarlikning uzviy integratsiyasi;
2. Real pedagogik kommunikativ vaziyatlarning muntazam tashkil etilishi;
3. Malakali va maqsadli mentorlik tizimini yo'lga qo'yish;
4. Talabaning kommunikativ faoliyatini aniq mezon va indikatorlar asosida baholash;
5. Muntazam qayta aloqa va refleksiv tahlilni tashkil etish;
6. Universitet va amaliyot bazasi o'rtasida uzluksiz hamkorlikni ta'minlash;
7. Pedagogik muloqot jarayonida insonparvarlik, pedagogik takt va kommunikativ madaniyat tamoyillariga ustuvor ahamiyat berish.

Umuman olganda, dual ta'lim modeli bo'lajak o'qituvchini real pedagogik faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlash, nazariy bilimlarni kasbiy tajriba bilan mustahkamlash va pedagogik muloqot kompetentligini barqaror rivojlantirish imkonini beradi. Natijada bo'lajak pedagog o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samarali hamkorlik o'rnatiladigan, turli kommunikativ vaziyatlarga moslasha oladigan, o'z faoliyatini tahlil qilib, takomillashtira oladigan kasbiy kompetent mutaxassis sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. - T.: TDPU, 2000. - 52b
2. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: "Fan", 2009. - 168 b
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati: talabalar uchun darslik. T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy ko'tubxonasi nashriyoti. 2007
4. Курбанов Ш., Сеитхалилов Э., Мажидов И. Оценка исполнительской деятельности управленческих кадров. -Т., "Академия", 2003
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.:IQTISOD MOLIYA, 2011
6. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. - СПб.: СПГУТД, 2006

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.